



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

AQSHDA BYUDJET TIZIMI VA BYUDJET TUZILMASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Narullayev Omonulloxon Nodirjon o`g`li

Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti

Moliya sohasida boshqaruv yo`nalishi 2- bosqich talabasi

E-mail: omonulloxon0408@gmail.com

Erkinova Sarvinoz Xayrullo qizi

3-bosqich talabasi, Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bøyicha) yònaliishi
sarvinozerkinova877@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Amerika qo'shma Shtatlarining byudjet tizimi ikki asrdan ko'proq vaqt davomida rivojlanib kelgan murakkab va dinamik asosdir. Fiskal boshqaruv, siyosiy javobgarlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek maqolada AQSh byudjet tizimining tarixiy evolyutsiyasi o'rganib chiqiladi, uning hozirgi tuzilishini shakllantirgan asosiy islohotlar va institutsiyon o`zgarishlarga e'tibor qaratiladi. Federal byudjet jarayonini rivojlantirishga, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning o`zaro ta`siriga va zamonaviy AQSh byudjeti tarkibiga e'tibor qaratiladi.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ БЮДЖЕТНОЙ СИСТЕМЫ И БЮДЖЕТНОЙ СТРУКТУРЫ В США

Аннотация:

В этой статье бюджетная система США представляет собой сложную и динамичную основу, которая развивалась более двух столетий. Фискальное управление играет ключевую роль в обеспечении политической ответственности и экономической стабильности. В статье также исследуется историческая эволюция бюджетной системы США с акцентом на фундаментальные реформы и институциональные изменения, которые сформировали ее нынешнюю структуру. Основное внимание уделяется



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

развитию федерального бюджетного процесса, взаимодействию законодательной и исполнительной власти и современной структуре бюджета США.

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE BUDGET SYSTEM AND BUDGET STRUCTURE IN THE UNITED STATES

Abstract:

In this article, the budget system of the United States is a complex and dynamic framework that has been developing for more than two centuries. It plays a key role in ensuring fiscal governance, political accountability and economic stability. The article also examines the historical evolution of the US budgetary system, focusing on the main reforms and institutional changes that have shaped its current structure. Attention will be paid to the development of the Federal budget process, the interaction of the legislative and executive branches and the composition of the modern US budget.

Kalit so‘zlar: AQSh, byudjet tizimi, federal byudjet, fiskal siyosat, moliyaviy nazorat, Kongress, Moliya vazirligi.

Kirish

Hozirgi davrda davlat moliyasi tizimi davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishdagi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, byudjet tizimi moliyaviy resurslarni to‘plash, taqsimlash va maqsadli yo‘naltirishni tartibga soluvchi institut sifatida davlatning fiskal siyosatini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Har bir davlat o‘zining siyosiy tuzumi, iqtisodiy rivojlanish darajasi va ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘ziga xos byudjet tizimini shakllantiradi. Bu jarayonda Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSh) misolida byudjet tizimining tarixiy shakllanishi va zamonaviy rivojlanishini o‘rganish alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. AQShda byudjet tizimi federalizm prinsiplariga asoslangan holda ishlaydi. Bu tizim federatsiya (markaziy), shtatlar va mahalliy darajadagi byudjetlarning muvofiqlashtirilgan faoliyatini o‘z ichiga oladi. Byudjet jarayonining institutsional



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

asoslari, ya’ni Prezident, Kongress, Moliya vazirligi, Byudjet boshqarmasi (OMB) va Hisob palatasi (GAO) kabi tashkilotlar tomonidan muvofiqlashtirilganligi, tizimning barqarorligi va ochiqligini ta’minlaydi. AQSh byudjet tizimining rivojlanishiga tarixiy nuqtai nazardan yondashilganda, ushbu tizimning shakllanishi va rivojlanishi bir necha asosiy bosqichlarda amalga oshgani kuzatiladi. Jumladan, dastlabki davrda (1789–1920-yillar) byudjet jarayoni markazlashmagan va asosan ijro hokimiyatining alohida bo‘limlari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, 1921-yilda qabul qilingan “Budget and Accounting Act” orqali Prezident byudjet jarayonining markaziy ishtirokchisiga aylantirilgan. Bu esa byudjet siyosatini yagona tizim asosida boshqarishga xizmat qilgan. 1974-yildagi “Congressional Budget and Impoundment Control Act” esa byudjet ustidan parlament nazoratini kuchaytirgan bo‘lib, Kongressning mustaqil byudjet boshqarmasini CBO ni tashkil qilishga olib kelgan. Bugungi kunda AQSh byudjet tizimi faqatgina iqtisodiy boshqaruv vositasi bo‘lib qolmay, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida ham xizmat qilmoqda. Byudjet tuzilmasi va jarayonining ochiqligi, jamoatchilik nazorati va hisobdorlik tamoyillarining amalda qo‘llanilishi demokratiya sharoitida moliyaviy boshqaruvning samaradorligini oshiradi. Mazkur ilmiy maqolada AQSh byudjet tizimi va byudjet tuzilmasining tarixiy rivojlanish bosqichlari, asosiy institatlari va zamonaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu orqali, byudjet siyosatining shakllanishidagi asosiy omillar, davlat moliyasini boshqarish mexanizmlari va ularning samaradorligi bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqariladi.

Metodlar. Mazkur maqolada Amerika Qo‘shma Shtatlarining byudjet tizimi, uning shakllanishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, AQSh byudjet tizimining demokratik nazorat va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi roli yoritiladi.

Natijalar. AQSH byudjet tizimi va uning tarixiy rivojlanishi bo‘yicha olib borilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalar va ilmiy xulosalar chiqariladi.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

1. AQShda byudjet tizimining shakllanishi

AQShda federal byudjet tizimi 1789-yilda AQSH konstitutsianing kuchga kirishi bilan shakllana boshlagan tizimdir. AQSHda moliya siyosatini yuritish vakolati Kongressga berilgan. 1921-yilda qabul qilingan "Budget and Accounting Act" asosida Prezident byudjetni rejalashtirish vakolatiga ega bo'ldi. Ushbu qonun bilan Byudjet byurosi (hozirgi OMB – Office of Management and Budget) tashkil etildi.

2. Byudjet tizimining rivojlanish bosqichlari

1-bosqich (1789–1920-yillar):

Dastlabki davrda federal byudjet jarayoni oddiy va markazlashmagan edi. Har bir federal agentlik o‘z xarajatlarini mustaqil ravishda belgilagan.

2-bosqich (1921–1974-yillar):

1921- yildagi "Budget and Accounting Act" qonuni orqali byudjet jarayoni aniq insitut tomonidan tartibga solina boshlandi. Bu esa molivayi boshqaruvning samaradorligini oshirdi.

3-bosqich (1974–hozirgi kungacha):

1974-yilda "Congressional Budget and Impoundment Control Act" qabul qilinib, Kongress o‘zining mustaqil byudjet apparatini – CBO (Congressional Budget Office)ni tashkil etdi. Shuningdek, o‘rta muddatli byudjet rejalarini va xarajatlar chegarasi belgilandi.

3. Prezident va Kongress o‘rtasidagi byudjet bo‘yicha vakolatlar taqsimot-tizimning muvozanatlari ishlashini ta’minlaydi.

Prezident byudjet loyihasini ishlab chiqsa, Kongress uni tasdiqlaydi. Bu ikki tomonlama mexanizm siyosiy balansni saqlash, shaffoflikni oshirish va ortiqcha xarajatlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

4. Ochiqlik va jamoatchilik ishtirokini ta'minlashga katta e'tibor beriladi.

AQShda byudjet jarayonlari bo'yicha barcha ma'lumotlar ochiq e'lon qilinadi, fuqarolar va mustaqil tashkilotlar bu ma'lumotlarga asoslanib baho bera olishadi. Bu hisobdorlikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

5. Shtatlar va mahalliy hukumatlarning byudjet siyosatida mustaqilligini saqlab qolish-tizim barqarorligini ta'minlaydi.

Har bir shtat o'z byudjet siyosatini mustaqil shakllantirish huquqiga ega. Shu sababli, makroiqtisodiy muammolar yuzaga kelganda, mahalliy darajadagi tezkor qarorlar orqali muvozanat tiklanishi mumkin bo'ladi.

6. Zamonaviy byudjet tizimining xususiyatlari

❖ **Federalizm:** Byudjet uch darajada – federal, shtat va mahalliy darajada shakllanadi.

Federalizm tushunchasiga to`htaladigan bo`lsam bu siyosiy boshqaruva shakli bo`lib, unda hokimiyat markaziy (federal) hukumat bilan hududiy birliklar (shtatlar, viloyatlar, respublikalar) o`rtasida taqsimlanadi. Federalizmda har bir darajadagi hukumat o'z konstitutsiyaviy vakolatlariga ega bo`lib, ular mustaqil ravishda qaror qabul qilishi mumkin.

AQShda federalizmning asosiy xususiyatlari:



1-rasm. AQSH federalizmining asosiy xususiyatlari.

(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

1) Ikkilik (dual) hokimiyat tuzilmasi:

AQSh Konstitutsiyasiga ko‘ra, hokimiyat federal hukumat bilan 50 ta shtat o‘rtasida taqsimlangan. Har bir shtat o‘zining konstitutsiyasi, qonunchilik organi, sud tizimi va gubernatoriga ega.

2) Byudjet tizimida aks etishi:

Federalizm AQSh byudjet tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi federal, shtat va mahalliy darajadagi byudjetlar alohida shakllanadi va ular o‘z moliyaviy siyosatlarini yuritadi.

3) Soliq tushumlari va xarajatlar mustaqilligi:

Shtatlar o‘z soliq siyosatini belgilash va amalga oshirish huquqiga ega. Masalan, ayrim shtatlarda daromad solig‘i mavjud bo‘lsa, boshqalarida yo‘q.

4) Sud hokimiyatida federallik:

Federal va shtat sndlari turli yurisdiktсиyalarga ega bo‘lib, ba’zi ishlar faqat federal sndlarda, boshqalari esa shtat sndlari ko‘riladi.

❖ **Ijro va nazorat mexanizmlari:** Prezident – byudjet taklifini ishlab chiqadi, Kongress esa uni tasdiqlaydi.

Ijro va nazorat mexanizmlari deganda davlat byudjeti va moliyaviy siyosatini amalga oshirish hamda uning qonuniyligi, samaradorligi va maqsadlarga muvofiqligini ta’minlash uchun shakllantirilgan institutlar va huquqiy-amaliy jarayonlar majmuasidir.

❖ **Ochiqlik va hisobdorlik:** Ochiq ma’lumotlar portalini orqali fuqarolar federal xarajatlar haqida xabardor bo‘lishi mumkin.

• **Ochiqlik** – bu davlat hokimiyati, byudjet jarayoni yoki muassasalarning faoliyati haqida aniq, to‘liq va o‘z vaqtida axborot taqdim etilishi orqali jamoatchilikka ochiqlik bilan ishlash tamoyilidir. Ochiqlik davlat moliyasini boshqarishda fuqarolarning xabardor bo‘lish huquqini ta’minlab, davlatning ishonchliligi va samaradorligini oshiradi. Xalqaro standartlarga ko‘ra, ochiqlik darjasini yuqori bo‘lgan mamlakatlarda korrupsiya darjasini past, fiskal intizom esa kuchli bo‘ladi.

• **Hisobdorlik** – bu davlat organlari, mansabdor shaxslar yoki moliyaviy institutlarning o‘z harakatlari, qarorlari va moliyaviy resurslardan foydalanishi yuzasidan qonuniy, axloqiy va institutsional javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi tamoyilidir. Hisobdorlik tizimi orqali vakolatli shaxslar o‘z faoliyati natijalarini



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

omma oldida asoslab bera olishi, tanqidga ochiqligi va zarur hollarda javobgarlikka tortilishi ta'minlanadi.

Xulosa

Amerika Qo'shma Shtatlari byudjet tizimi va uning tuzilmasining rivojlanish bosqichlari xalqaro miqyosda har doim moliyaviy boshqaruvning namunali modeli sifatida e'tirof etiladi. AQShning ko`p yillik byudjet tizimi shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti nafaqat iqtisodiy resurslarni taqsimlash vositasi, balki ijtimoiy barqarorlik, siyosiy muvozanat va demokratik boshqaruv tamoyillarining amalda namoyon bo'lishini ta'minlovchi muhim institutdir. Shuningdek, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillari AQSh byudjet tizimining ajralmas qismi bo'lib, fuqarolarning davlat moliyasini nazorat qilishdagi rolini mustahkamlaydi. Fuqarolik jamiyatining ishtiroki, axborotga ochiqlik va mustaqil audit tizimlari byudjet siyosatini yanada shaffof qiladi. Bunday yondashuv AQSHda fiskal intizomni mustahkamlash, korrupsiya xavfini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib kelmoqda. Xulosa qilib aytganda, AQSh byudjet tizimining shakllanishi va rivojlanish tajribasi boshqa davlatlar, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim o'rghanish obyekti bo'lishi mumkin. Ayniqsa, samarali ijro va nazorat mexanizmlarini joriy etish, federalizm tamoyillarini moliyaviy boshqaruvga tatbiq qilish, hamda ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash orqali davlat byudjetining sifat darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu asosda, davlat moliyasining barqarorligi, ijtimoiy xizmatlarning uzluksizligi va iqtisodiy o'sishning izchilligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. U.S. Congress. Congressional Budget and Impoundment Control Act of 1974. Washington, D.C.
2. Office of Management and Budget (OMB). Budget Process Overview. <https://www.whitehouse.gov/omb>
3. Congressional Budget Office (CBO). The Federal Budget: Overview and Process, 2023.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

4. GAO (Government Accountability Office). Principles of Federal Appropriations Law. Washington, D.C., 2021.
5. Musgrave, R.A., Musgrave, P.B. Public Finance in Theory and Practice. McGraw-Hill, 1989.
6. Rubin, I. The Politics of Public Budgeting. Pearson, 2020.
7. Schick, A. The Federal Budget: Politics, Policy, Process. Brookings Institution Press, 2007.
8. Schick, A. (2007). The Federal Budget: Politics, Policy, Process. Brookings Institution Press.
9. U.S. Government Accountability Office (GAO). (2023). A Glossary of Terms Used in the Federal Budget Process.
10. Congressional Budget Office (CBO). (2024). Budget and Economic Outlook: 2024 to 2034.
11. Steuerle, C. E. (2014). Dead Men Ruling: How to Restore Fiscal Freedom and Rescue Our Future. The Century Foundation Press.
12. Rubin, I. (2016). The Politics of Public Budgeting. CQ Press.
13. U.S. Office of Management and Budget (OMB). (2024). Historical Tables, Budget of the United States Government.
14. Fisher, L. (1975). Presidential Spending Power. Princeton University Press.
15. White, J. (1998). The Deficit and the Public Interest: The Search for Responsible Budgeting in the 1980s. University of California Press.
16. Lee, R. D., Johnson, R. W., & Joyce, P. G. (2020). Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning.
17. United States Constitution, Article I, Section 9. (1787).
18. U.S. House of Representatives. (2022). A Citizen's Guide to the Federal Budget Process.